

22«9»2022 yil.

286-11-153-OB/2022-son

## PUDRAT SHARTNOMASI №44907

Ushbu shartnoma “**Buyurtmachi**” deb ataluvchi Beshariq tumani **Obodonlashtirish boshqarmasi** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i N. Nasipov bir tomondan va “**Pudratchi**” deb ataluvchi **SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **SH. Muxammedov** ikkinchi tomondan kelishuvi asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

### I. SHARTNOMANING MAVZUSI

1.1. «**Pudratchi**» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «**Buyurtmachi**»ning talablaridan kelib chiqib, *Farg`ona viloyati Beshariq tumani “Qum MFY” hududida 1 dona suv qudug`ini mukammal tamirlash, yangi suv tarmog`ini tortish, 1 dona suv nasosi va 1 dona suv minorasi o`rnatish* (qiymati QQS bilan) ishlarini shartnomaga ilova qilinuvchi smetaga muvofiq amaldagi tehnik shartlarga rioya qilgan holda bajarish majburiyatlarini o`z zimmasiga oladi.

1.2. «**Pudratchi**» tegishli loyiha-smeta hujjatlariga mos holda “**Buyurtmachi**” tomonidan berilgan ishlarni kelishilgan vaqtda bajarish va uni kamchiliklarsiz to`liq holda o`z muddatida “**Buyurtmachi**” ga topshirishni o`z zimmasiga oladi.

1.3. «**Pudratchi**» ish bajarish vaqtida qurilish-montaj va qazish ishlari uchun ketadigan qurilis materialiga va ishchi kuchibi o`z hisobidan o`zi ta`minlaydi.

1.4. «**Pudratchi**» tomonidan qilinadigan ishlar yakunlanganidan so`ng F-2, F-3 dalolatnomalarini “**Buyurtmachi**” o`zining mutahassislari ishtirokida qabul qilib oladi.

### II. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1 Xarid komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan shartnoma bo`yich bajarilishi lozim ishlar qiymati (barcha soliqlar, yig`imlar va ajratmalarni o`z ichiga olgan holda) joriy narhlarda **226 930 000 (Ikki yuz yigirma olti million to`qqiz yuz o`ttiz ming ) so`m ni tashkil qiladi.**

2.2. Shartnoma tomonlar o`rtasida imzolanib, tegishli G`aznachilik bo`limida ro`yhatga olingandan so`ng 15 bank ish kunida “**Buyurtmachi**” bajarilishi lozim ishlar umumiy qiymatining 30 foizini oldindan avans tariqasida ” **Pudratchi**” hisob raqamiga o`tkazib beradi.

2.3. To'lov shakli «**Pudratchi**» tomonidan F-2, F-3 hujjatlarini tasdiqlanganidan so'ng solishtirma dalolatnoma va hisob-fakturaga asosan «**Buyurtmachi**» «**Pudratchi**» ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, «**Pudratchi**» tomonidan topshirilgan hisob-fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beriladi.

2.5. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «**Buyurtmachi**» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### 3.1. «**Pudratchi**»ning majburiyatlari

O'z kuchi va texnika vositalari bilan calendar ish rejasida nazarda tutilgan barcha ishlarni to'la hajmda va muddatda bajarishi hamda tegishli loyiha hujjatlaridagi holatda ishlarni «**Buyurtmachi**» ga me'yoriy hujjatlar talabiga va qoidalar asosida topshiradi.

Mazkur shartnomaga muvofiq avans to'lovi amalga oshirilganidan boshlab 10 kun muddatda mazkur shartnomada nazarda tutilgan ishlarni bajarishga kirishadi.

Barcha ishlarni «**Buyurtmachi**» talablariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarishi hamda «**Buyurtmachi**»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

#### 3.2. «**Pudratchi**»ning huquqlari

Bajarilgan ishlar uchun oldindan avans haq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda hisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarilgan ishlarni qabul qilish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

#### 3.3. «**Buyurtmachi**»ning majburiyatlari

Tasdiqlangan talablar bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lash;

#### 3.4. «**Buyurtmachi**»ning huquqlari

«**Pudratchi**»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shahs tomonidan to'g'rilanishi harajatlarini qoplanishini talab qilish;

«**Pudratchi**»dan shartnomada ko'rsatilgan bajarilgan ishlarni qabul qilish xarid komissiyasi ishtirokida sifatini ko'rib olish;

«**Pudratchi**» tomonidan bajarilgan ishlarni shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish.

### IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «**Pudratchi**» ishlarni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «**Buyurtmachi**»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiytlar bahosining 50 % ida oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «**Pudratchi**» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa, «**Buyurtmachi**» tomonidan to'lovlar to'htatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarining 20 % ni miqdorida «**Pudratchi**» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «**Buyurtmachi**» tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan oshmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma shartlarini buzgan tarafni ikkinchi tomonga ana shu majburiyatlar bajarilmasligi oqibatida etkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi..

## V. FORS MAJOR HOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu holatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir qilsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

## VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha euzaga kelishi mumkin nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'llari bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

## VII. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATLARI

7.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yhatga olingan kundan kuchga kirib, 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma ikki nushada tuzilib, ikkala nushasi ham xuquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

## VIII.KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

### **Tomonlar:**

8.1.Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti harakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

8.2.Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti harakatlarni harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

8.3.Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

## IX. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

### **Pudratchi:**

SHERXON INVEST QURILISH ONE  
MCHJ

Manzil:Beshariq tumani Sobirtepa MFY  
X/R 20208000105271363001

STIR 307679454 MFO 00797

Xalq Banki Beshariq tumani filiali

Rahbar SH.Muxammedov



### **Buyurtmachi:**

Beshariq tuman Obodonlashtirish  
boshqarmasi

Manzil:Beshariq shahri, Oltin Vodiy  
ko'chasi 114-uy

x/p 401722860302157065200110012

INN 206994051 MFO 00014

OKOD 92930

Markaziy bank Toshkent HKKMM

Raxbar: N.Nasipov



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH
Imzolangan sana	22 сeH 2022 10:41
Hujjat kodi	<b>UY5352307430</b>
Hulosa kodi	<b>QB4372164470</b>



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG‘ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO‘LIMI**  
**YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI**

150300, Beshariq tumani, Oltin vodiy ko‘chasi, 46-uy  
Tel.:(998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz

22.09.2022 yil

**Beshariq tuman**  
**Obodonlashtirish boshqarmasiga**

**XULOSA**

*(Obodonlashtirish boshqarmasining  
shartnoma loyihasiga)*

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** Pudrat shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 20 sentyabr kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

**4.Loyiha bo‘yicha taklif:** Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda «SHERHON INVEST QURILISH ONE» MCHJ o‘rtasida “Farg‘ona viloyati Beshariq tumani Qum MFY hududida 1 dona suv qudug‘ini mukammal ta‘mirlash, yangi suv tarmog‘ini tortish, 1 dona suv nasosi va 1 dona suv minorasi o‘rnatish (qiymati QQS bilan) to‘g‘risidagi 226 930 000 (Ikki yuz yigirma olti million to‘qqiz yuz o‘ttiz ming) so‘mlik shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o‘rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi (Xo‘jalik shartnomasiga nisbatan qo‘yiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” nizom va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida Respublika To‘var hom-ashyo birjasining xarid.uz saytidagi boshqarmaning shaxsiy kabineti orqali № 149139-lot raqami bilan e‘lon jo‘ylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga, Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 19-sentyabr kungi tanlov komissiyasining yigilish bayoni, № 149139-lot

raqamli e'lon bo'yicha takliflar, bajaruvchilarning tadbirkorlik Guvohnoma-litsensiyasi, Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimining 2022 yil 6-iyuldagi 153-11-153-Q/22-sonli qarori ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:


### XULOSA

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining "Maxsulot etkazib berish to'g'risida"gi shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq.

Markaz Bosh yuriskonsulti:



O.Boltaboyev



Ўзбекистон Республикаси Вазирлар мажмасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошисига кўра Бешарик тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан “Фаргона вилояти Бешарик тумани Кум МФЙ ҳудудида 1 дона сув кудуги мукамал таъмирлаш, янги сув тармоғи тортиш, 1 дона сув насоси ва 1 дона сув минораси урнатиш ишлари” буйича 22110012149139-сонли лот юзасидан танлов комиссиясининг муҳокама натижалари тўғрисида

33 -СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил 22 сентябрь соат 10:57

Бешарик шаҳри

Танлов комиссияси иштирокчилари:

Комиссия раиси:	Рахбар	Н. Насипов
Комиссия котиби:	Бош хисобчи	Б. Пирназаров
Комиссия аъзоси:	Техника хавфсизлиги муҳандиси	Х. Дадабоев
Комиссия аъзоси:	Йул техниги	А. Пулатов
Комиссия аъзоси:	Омбор мудир	Д. Фаттоев
Комиссия аъзоси:	Булим бошлиғи	Л. Юсуфжонов

Йигилиш кун тартибидаги масала:

“Фаргона вилояти Бешарик тумани Кум МФЙ ҳудудида 1 дона сув кудуги мукамал таъмирлаш, янги сув тармоғи тортиш, 1 дона сув насоси ва 1 дона сув минораси урнатиш ишлари” буйича УзРТСБ Etender.uzex.uz порталида 12-09-2022 11:58дан 19-09-2022 11:58гача бўлган вақтда жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар:

1. SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ
2. WORLD MARKET BESHARIQ 1995




19.09.2022йил соат 12:40да танлов комиссияси аъзолари томонидан SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ голиб деб топилди ва бу ҳақда электрон баённома расмийлаштирилди ҳамда шу вақтда 2 иш кунига муҳокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш куни давомида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмади ва махсус комиссия қарори буйича голиб билан шартнома тузишга қарор қилинди.

Комиссия раиси:




Н. Насипов

Комиссия аъзоси:




Х. Дадабоев

Комиссия аъзоси:




А. Пулатов

Комиссия аъзоси:



Д. Фаттоев

Комиссия аъзоси:



Л. Юсуфжонов



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Фарғона вилояти

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy tel 73)-244-68-81 244-68-82 mail: fergexp@rambler.ru

[www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: MADMAROV KUDRAT YAXIYADJANOVICH

Sana:30-08-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 59209**

**Obyekt nomi** «Farg'ona viloyati Beshariq tumani "Qum" MFYga 1 dona suv qudug'i mukammal tamirlash, 1 dona suv nasosi , 1 dona suv minorasi , 1 dona TP o'rnatish hamda 7km ichimlik suv tarmog'ini tortish.»

**Buyurtmachi** - "FOZILJON PROJECT BUILDINGS" MChJ

**Bosh loyihachi** - "FOZILJON PROJECT BUILDINGS" MChJ

**Litsenziya** "FOZILJON PROJECT BUILDINGS" MChJ

**Moliyalashtirish manbai** - Byudjet mablag'lari

**Bosh pudratchi** - Tender savdolari asosida (agar qaror qabul qiluvchi organ tomonidan belgilangan bo'lsa)

**Qurilish turi** Qurilish.

**Murojaat raqami:** № 57254

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori.

Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimi 2022-y 22-iyun kungi 138-11-153-Q/22 qarori

1.2.Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimi 2022-y 6-iyul kungi 138-11-153-Q/22 qarori

1.3. Arxitektura va qurilish boshqarmasi tomonidan 25.08.2022 yilda berilgan 1730-1730215-49080-sonli arxitektura va rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Farg'ona viloyat Beshariq tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i N.Nasipov rahbari tomonidan tasdiqlangan, loyixa topshirig'i.

1.5. «Geo Plan» MCHJ tomonidan 2022-yilda berilgan obyektning muhandislik-geologiya xulosasi.

1.6. Muhandislik tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari, muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Loyiha tarkibiga ko'ra elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyixa smeta hujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

*Obodonlashtirish va kokalamzorlashtirish.*

Suv inshotiga kirish qismi beton orqali yo'lak ichki yo'l va yo'laklar qum shag'al qoplamalari tiklanadi. Yo'laklar qirg'oqlari beton chegara bilan chegaralanadi. Loyihada hududni ko'klamzorlashtirish ishlarida dekorativ o'simliklar, mevali daraxtlar va gullardan ekish, o'tli to'shamalar qaytadan tiklanish evrodevor bilan o'radh rejdalashtirilgan.

#### *Suv minorasini qurish:*

Loyihada yangi suv minorasi qurish ko'zda tutilgan, sig'imi  $V=25$  m<sup>3</sup>. balandliga  $H=15$  metr. Suv minorasi silindri ko'rinishda bo'lib (Rojnovskiy tipidagi suv minorasi) pastki qismi asosga mahkamlanadi. Minora bak qismi diametri 3020 mm va tayanch qismida esa 1220 mm. Suv minorasi poydevorlari M200 markali betondan iborat. Minorani tashkil yuzalarini ikki marotaba BT-177 laklari bilan bo'yash lozim. Suv minorasi ichida suv bir sutkada ikki almashinishi tavsia qilingan, minora tashki issitish qoplamasiga ega emas.

Suv minorasi atrophi sanitar zonasiga ega bo'lishi va atrofi o'ralishi ilovada ko'rsatilgan. Ichki maydon asfalt qoplamasi yoki shag'al to'shamadan iborat b'lishi kerak.

#### *Suv qudug'ilariga nasoslar va suv minolarini o'rnatish.*

Loyihada mavjud 1 dona artezian quduqlarga suv quyish nasoslari va suv minolarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

« Farg'ona Vioyati Beshariq Tumani «Qum» MFI Hududida Yangi Suv tarmog'ini tortish, 1 dona suv nasosi va 1 dona suv minorasini o'rnatish » loyihasida.

Bosh rezhada kursatib o'tilgan va hozirda taerlangan Fargona vioyati Beshariq tumani "Qum" MFI xudidida yangi suv suv tarmog'ini tortish , 1 dona suv nasosi va 1 dona suv minorasini o'rnatish » ishchi loyixasida 1 ta suv quduqiga suv quyish nasosini urnatish, 25 m<sup>3</sup> sigimli 15 metr balandlikdagi suv minorasi o'rnatish ko'zda tutilgan.

Bosh Rejada ko'rsatib o'tilgan Bactericidka ustanovkasi, Euro Darvoza va evrodevor, obodonlashtirish ishlari qurilish ob'ektini elektrlashtirish ishlari Buyurmachi Beshariq Tumani "Obodonlashtirish" Boshqarmasi, Beshariq tumani elektr ta'minoti korxonasi, Beshariq tumani Yong'in hafvsizligi bo'limi, Beshariq tuman cadastr bo'limi tomidan kelishilgan bosh rejaga asosan alohida loyiha smeta xujjatlarini tayorlash bilan keyingi bosqichda amalga oshirishi rejalashtirilgan. buyurtmachi Beshariq tumani "Obodonlashtirish boshqarmasi . Beshariq tumani elektr ta'minoti korxonasi ,Beshariq tumani Yong'in xavsizligi bo'limi , Beshariq tuman kadastr bo'limi tomonidan kelishilgan bosh rejaga asosan aloxida loyiha smeta xujjatlarini tayyorlash bilan keyingi bosqichda amalga oshirishi rejalashtirilgan.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

4.1. Muhandislik tizimlari loyiha topshirig'iga muvofiq jixozlangan. (Elektron taqdim etilgan albomlarda batafsil ko'rsatilgan).

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Arxitektura va qurilish boshqarmasi tomonidan 25.08.2022 yilda berilgan 1730-1730215-49080-sonli arxitektura va rejalashtirish topshirig'i.

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko'rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko'rsatib o'tilgan).

6.4. Buyurtmachi jami xarajati, obyektning materiallar qiymati, ish xaqqi 12114,89 so'm/chelchas (ijtimoiy sug'urta siz) va pudratchining boshqa xarajatlari 19,39% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami bo'lib 255 758,827 ming so'm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quydagi ko'rsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish qiymati QQS siz	- 197 335,629 ming so'm
QQS 15%	- 29 600,345 ming so'm
Qurilish qiymati QQS bilan	- 226 935,974 ming so'm
Buyurtmachining xarajatlari	- 28 740,662 ming so'm
Jami obyekt qiymati QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan	- 255 676,636 ming so'm
Iqtisod qilingan mablag'	- 82,191 ming so'm

6.5. Kamayish qurilish mashinalari va mexanizmlari hamda ba'zi materiallar qiymatini sozlash xisobiga amalga oshirildi.

6.6. Jixozlar qiymati buyurtmachi kompetensiyasiga kiradi

6.7. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarining haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkilotlari javobgardir.

## 7. Xulosalar.

7.1. Farg'ona viloyati Beshariq tumani "Qum" MFYga 1 dona suv qudug'i rekonstruksiya qilish, 1 dona suv nasosi, 1 dona suv minorasi, 1 dona TP o'rnatish hamda 7km ichimlik suv tarmog'ini tortish, loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Ko'rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to'g'risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

**Bosh mutaxassis: TASHEMIROVA SHOXISTA MAXAMATJONOVNA**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ФАРГОНА ВИЛОЯТИ  
ФАРГОНА ТУМАНИ  
«FOZILJON PROJECT BUILDINGS»  
МАЪСУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ



"FOZILJON PROJECT BUILDINGS"  
МЧЎ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FARG'ONA VILOYATI  
FARG'ONA TUMANI  
«FOZILJON PROJECT BUILDINGS»  
MA'SULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

Фаргона вилоят Фаргона туман Чекшура МФЙ Маънавият кучаси 30- уй.  
Х/р-20208000505325265001, МФО- 01128, АТБ«INVEST FINANCE BANK» Фаргона филиали, ИНН. – 308 045 634  
Лицензия № АЛ-001641. берилган сана 17.02.2021 (бессрочная) тел: (97) 334 01 02

## РАБОЧИЙ ПРОЕКТ

**Объект: : Фаргона вилояти Бешарик тумани «Кум» МФЙ  
худудидида 1 дона сув насоси ва 1 дона сув минорасини  
урнатилиш, янги ичимлик суви тармогини тортилиш  
Сметная документация в текущих ценах  
(РЕКОМЕНДУЕМАЯ)**

### Книга №1

**Структура прямых и прочих затрат.  
Ведомости потребных ресурсов.  
Локальные ресурсные ведомости.**

Заказчик: Бешарик тумани «ободонлаштириш» бошкармаси.

Директор:

У. Юлдашов

Фаргона - 2022 год